

22-dars

Darsning mavzusi: Soʻz yasovchi qoʻshimchalar. (94-98mashqlar)

Darsning taʼlimiy maqsadi: Soʻz yasovchi qoʻshimchalarni ajrata olish, ularni gapdagi vazifasi haqida maʼlumot berish, ularni ogʻzaki va yozma nutqda toʻgʻri qoʻllay olish koʻnikmalarini shakllantirish, oʻqilgan matn mazmunini va oʻzgalar fikrini anglab, ifodalay oladi, ogʻzaki nutqda soʻz va gaplar ohangiga rioya qila olish, soʻzdagi qoʻshimchalarga koʻra turlarini farqlash, soʻz yasovchi qoʻshimchalarni oʻz oʻrnida qoʻllay ishlata olish.

Darsning tarbiyaviy maqsadi: oʻquvchilarda vatanparvarlik, tartiblilik, doʻstlik, shirinsoʻzlik xislatlarini tarbiyalash; axborot manbalaridan va darslik materiallaridan tashqari (kitob, lugʻat) manbalardan maʼlumotlarni izlab topa olish va foydalanish; oʻzining xato va kamchiliklarini toʻgʻri tushunib, oʻzini nazorat qila olish va xatolarini tuzatishga harakat qilish, kattalarga, kichiklarga va oʻrtoqlariga yordam berish; oʻzidan kattalarga, oʻrtoqlariga va oʻzidan kichiklarga yordam berish; yaxshi va yomon odatlarni bir-biridan farqlay olish.

Darsning rivojlantiruvchi maqsadi: turli kasblarga mehr uygʻotish, oʻz fikrini tinglovchilarga yetkaza olish, ifodali oʻqish va ohangdor qilib gapirish malakalarini takomillashtirish; talaffuz meʼyorlariga, boʻgʻin koʻchirish qoidasiga rioya qila oladi, mavzuga oid soʻzlarni ogʻzaki va yozma nutqda, oʻzlashtirilgan leksik birliklarni matnda qoʻllay olish.

Darsning turi: oʻquvchilarning bilim, koʻnikma va malakalarini rivojlantirish.

Darsning metodi: suhbat, analiz, mustaqil ish metodi, aqliy hujum metodi, “kim chaqqon” oʻyini.

Darsning jihozlari: turli kasb egalari tasvirlangan mazmunli rasmlar, mavzuga oid alloma, adiblar rasmlari, multimedia ilovalari.

Darsning borishi

I. Tashkiliy qism.

- salomlashish;
- davomat;
- maʼnaviyat daqiqasi.

II. Oʻtilgan mavzularni mustahkamlash.

Husnixat daqiqasi:

Do'sting bilan uying obod .

O'tilgan mavzuda berilgan uyga vazifasini tekshirish. Uyga berilgan mashq o'qitiladi. Uy vazifasi tekshirilayotganda doim o'quvchilarga "Qaysi so'zda yoki shu so'zning qayerida imlo xato qilib qo'yish mumkin?" degan savol berish, o'sha so'zning imlosi ustida ishlash lozim. Mustaqil ravishda so'z yasovchi va so'zlarni o'zaro bog'lovchi qo'shimchalar qatnashgan so'zlar yozish topshiriladi. O'qituvchi o'quvchilar mustaqil ishni bajargunlaricha uy vazifalarini tekshirib chiqadi. O'quvchilar yozgan so'zlarini o'qib eshittiradilar. Har bir so'zda qanday qo'shimcha borligini izohlaydilar. O'qituvchi o'quvchilar yozgan eng yaxshilarini doskaga yozdiradilar.

O'quvchilar bilan so'zlardagi qo'shimchalar yuzasidan fikrlari umumlashtiriladi.

III. Mustahkamlash.

94-mashq. Quyida berilgan gaplardan so'z yasovchi qo'shimchalar bor so'zlarni toping.

Yurtga bosqinchilar hujum qilibdi.

Ular talonchilar qo'lidan mingga yaqin kitoblarimni sotib oldilar.

Bosqinchilar, talonchilar

Qoidani yod oling

-li, -siz, -dosh, -dor, -xon, -chi, -la- so'z yasovchi qo'shimchalar

Guruhlarga bo'lish.

Har bir guruh yuqoridagi barcha qo'shimchalar ishtirokida o'nta so'z yozish.

95-mashq. Jadvalni to'ldiring

-li	-siz	-dor	-xon	-chi	-dosh	-la-
qizi	ten	jimjim	g'azal	qizi	vatan	is
qarli	gsiz	ador	xon	qchi	dosh	hla

Dam olish daqiqasi

Uzum

Biz bir shoda uzummiz
Onam qo'shsak uzunmiz.
Kuz fasliga g'arq bo'lib
Pishgach quvvatga to'lib
Asal bo'lgan uzummiz.

96-mashq. Rasmlarga qarang. So'z yasovchi qo'shimchalar qatnashgan so'zlar toping. Ushbu so'zlar ishtirokida gaplar tuzing

Masalan: Sportchi yurt bayrog'ini yuqoriga ko'taradi.

Rangli qalamlar sotib oldim.

Tikuvchi chiroyli ko'ylaklar tikdi.

97-mashq

Test topshiriqlari asosida o'quvchilar bilimi mustahkamlanadi.

1. A 2. D 3. E 4. A

IV. Darsga yakun yasash va baholash

O'quvchilarning darsdagi ishtiroki va ijodkorligi, faolligi, topshiriqlarni bajarish darajasiga ko'ra o'qituvchi tomonidan baholab boriladi. Dars yakunida umumiy baholar e'lon qilinadi va faol, bilimdon o'quvchilar rag'batlantiriladi.

V. Uyga vazifa.

98-mashq sharti tushuntirib beriladi va uni uyda bajarib kelish kerakligi ta'kidlanadi. Allomalar va adiblarning hikmatli so'zlari va maqollari o'qib beriladi, rasmlari ko'rsatiladi.